

ZAMONAVIY DARS JARAYONIDA INNOVATSION METODLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani
88-umum ta'lim maktabining
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi
Davirova Gulmira Doniyarovna

Bugungi kunda ta'lim tizimi jadal rivojlanib, o'qituvchilardan nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni hayotga tayyorlash kabi muhim vazifalarni ham talab etmoqda. Shu sababli dars jarayonida zamonaviy va innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb masalaga aylangan.

An'anaviy darslar ko'proq o'qituvchi markazida tashkil etilgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi faol subyektga aylanadi. Ya'ni, o'quvchi nafaqat tinglovchi, balki izlanadigan, tahlil qiladigan va xulosa chiqaradigan shaxs sifatida shakllanadi. Bunday natijaga erishishda interfaol metodlar katta ahamiyatga ega.

Interfaol metodlar o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi. Masalan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Baliq skeleti", "Debat", "Rol o'ynash" kabi, qolaversa o'zim ommalashtirgan, "Yaxmalak otish", "Jajji barmoqchalar", „Yuzda yurma, yuzga kir“ va hokazo metodlar orqali o'quvchilar mustaqil fikr yuritishga o'rganadi. Bu esa ularning nutq madaniyatini, mantiqiy tafakkurini va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy darsning yana bir muhim jihati — axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Kompyuter, planshet, interaktiv doska va turli ta'limiy platformalar orqali darsni yanada qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. Masalan, videodarslar, taqdimotlar, testlar va virtual laboratoriyalar o'quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Shuningdek, differensial yondashuv ham zamonaviy ta'limning muhim talabi hisoblanadi. Har bir o'quvchining bilim darajasi, qobiliyati va qiziqishi turlicha bo'lganligi sababli, o'qituvchi darsni shunga mos ravishda tashkil etishi lozim. Kuchli o'quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar, o'zlashtirishi sustroq bo'lgan o'quvchilar uchun esa soddaroq va tushunarli vazifalar berilishi maqsadga muvofiq. Dars jarayonida motivatsiya ham alohida o'rin tutadi. O'qituvchi o'quvchilarga rag'bat berib borishi, ularning har bir kichik yutug'ini e'tirof etishi kerak. Bu esa o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi va ularni yanada faol bo'lishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dars jarayoni o'qituvchidan yuqori darajada tayyorgarlik, ijodkorlik va yangilikka intilishni talab qiladi. Innovatsion metodlardan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning bilim darajasi oshadi, ularning mustaqil fikrlashi rivojlanadi va ta'lim sifati yuksaladi. Shu bois har bir o'qituvchi o'z ustida ishlab, darslarini zamon talablari asosida tashkil etishi lozim.